

Boshlang`ich ta`lim sohasini prezentatsiyalar asosida tashkil qilishning ahamiyati

Shodiyeva Matluba
Qashqadaryo VXTXQTMOI
Maktabgacha, boshlang`ich va
maxsus ta`lim kafedrasi katta o`qituvchisi

Hozirgi kunda barcha ta`lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bunday imkoniyatlarning yaratilayotganligi har bir pedagogni o`z mehnat faoliyatiga kreativ yondashuvni ya`ni, texnik vositalardan foydalanib dars jarayonini tashkil etishni talab etmoqda. O`quv kursini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- mashg`ulotlarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o`quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o`qitish metodlari;
- o`quv topshiriqlarining turlari;
- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko`nikmasiga ega bo`lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo`llay olishi lozim:

Yangi o`quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;

- har bir dars mashg`ulotlari uchun prezentatsiya taqdimotlarini tayyorlash;
- internet, o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo`shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

-kompyuter texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Slyd – ma`lum bir o`lchamga ega bo`lgan muloqot varaqalari bo`lib, unga muayyan bir maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylashtiriladi. Muayyan maqsad bilan yaratilayotgan namoyish vositalari darsning maqsadidan kelib chiqishi va darsning mazmun – mohiyatidan kelib chiqishi lozim. Namoyish vositalari bu – slydga joylashtirilgan har bir matn, rasm, jadval, diagramma, shu bilan birga animatsiya va ovozlar ham tashkil etadi.

Elektron taqdimot-darsda slydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O'quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o'tilayotgan materialning berilishi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slydlarga o'quvchilar o'zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'ladilar:

- berilgan ma`lumotlarni uzoq vaqt xotirada saqlanishi;
- olanmi kengroq idrok etadi;
- fikrlarni jamlaydi;
- tafakkur qilish qobiliyati o`sadi;
- so`z boyligi ortadi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o`z bilim va ko`nikmalarini tahlil qilish, tizimlashtirish;
- o`zining o'quv biluv faoliyatini rejalashtirish;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishda, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usuli va vositalari majmuidir.

Boshlang'ich ta'lim o'quv darslarida axborot majmui-ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish,
- ma'ruza matnlari va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'liq topshiriqlarni tayyorlash,
- metodik ko'rsatmalar va nazorat savollarini tuzish,
- o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish,
- ma'ruza matnlarini tahrirlash,
- har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.

Foydalanuvchi o'z ish faoliyatida hisobotlar mazmunini boyitish, bezash, uni ko'rgazmali namoyish qilish (prezentatsiya), slaydlar tayyorlash kabi ishlar mazmunini bajarishga to'g'ri keladi, ya'ni ko'pchilik amaliy masalalarni slaydlar orqali namoyish etish masala mohiyatini yanada yaqqolroq, tasavvur qilishga hamda xulosa chiqarishga yordam beradi. Ko'rgazmali vositalar diagramma, grafik yoki rasmlar, matnlar va ularni ovoz bilan uyg'unligi (multimedia) bo'lishi mumkin. Bunday holda foydalanuvchi Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan Power Point dasturiga murojaat qiladi.

POWER POINT dasturi – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturi bo'lib, unda matnlar, rasmlar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar, ovozlar, animatsiyalar va boshqalardan iborat slayd tayyorlanadi.

Power Point Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, u bevosita Windows operatsion tizimi boshqaruvida ishlaydi.

MS Power Point yordamida turli mazmundagi ma'ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjatlarni slaydlar tarzida mazmunli tez va yuqori sifatda

tayyorlash mumkin. Dasturning afzalligi shundaki, u bir nechta hujjatlar - hisobot, rasm, diagramma, grafiklarni bog'lash, bir joydan ikkinchi joyga qo'chirish, matnlar yoniga tasvirlar tushirish, hisobotdagi alohida olingan qismlarni rang-barang usullarda, masalan ketma-ket belgilarni ekranga chiqarish yordamida turli xil animastiyalardan foydalangan holda tuzish imkonini beradi.

Power Point dasturi imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- prezentasiya va slaydlar tashkil etish;
- rasm va grafiklarni slaydlarga joylashtirish;
- Web uchun prezentasiya tashkil etish;
- Internetda hamkorlikda ishlash;
- Power Point da dasturlash ishlarini bajarish;
- MS Office dasturlari-Word, Paint, Access, Excel, Internet Explorer va hokazolar bilan hamkorlikda ishlash.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim samaradorligini ta'min etuvchi asosiy omil o'quvchining bilim o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi va faolligidir. Shunday ekan, har bir pedagog o'quvchini ruhan oziqlantiradigan va faollikka undaydigan yangi zamonaviy texnologiya va usullarning ijodkori hamda targ'ibotchisi bo'lishi lozim.